



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улугбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI <i>Madiyev Abbos Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GARVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахроров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQTIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQQISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136
40.	MAMLAKATIMIZDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR <i>Baxtiyor Artikov</i>	139
41.	O'ZBEKISTONDA O'RTA VA KATTA BIZNESLARDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARI <i>Boyniyozov Ro'zimbek G'ulomjon o'g'li, Abduqahhorova Maxliyo Albert qizi, Muradullayev Sarvar Muradulla o'g'li</i>	146

42.	NARXLAR STATISTIKASI KUZATUVLARINI DATA SCIENCE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Odiljonov Ikromjon Komiljon o'g'li</i>	150
43.	BOZOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: NAZARIY EVOLYUTSIYA, MEXANIZMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <i>Karimova Latofat Sadullayevna</i>	153
44.	TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITAL YETARLILIGINI BOSHQARISH STRATEGIYASI <i>Mamadjonov Shukurillo Ibrohimjon o'g'li</i>	157
45.	OLIIY TA'LIMNING HUDUDIIY IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: PANEL FIXED EFFECTS EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) <i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	161
46.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA BYUDJET SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Salomov Abdulalom Ismatovich</i>	166
47.	УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОГРАНИЧЕНИЙ <i>Тухтаев Максуд Мансурович</i>	169
48.	KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI <i>Urazbayev Raxmatjon Otajanovich</i>	172

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



MAMLAKATIMIZDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR

Baxtiyor Artikov

TDIU mustaqil izlanuvchisi
bahtiyorartikov1981@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet harajatlari ijrosi tahlili samaradorligini oshirish bo'yicha yangi uslubiy yondashuvlar va ushbu yangi yondashuvlar orqali samarali byudjetlashtirish tizimini qo'llash byudjetni to'g'ri shakllantirish va uning ijrosini ta'minlashni metodologiyasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: byudjet, byudjet mablag'lari, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, dasturiy byudjetlashtirish, an'anaviy byudjetlashtirish.

Abstract: This article presents new methodological approaches to improving the efficiency of analyzing budget expenditure execution. It also describes the methodology for developing an effective budgeting system based on these approaches, ensuring proper budget formulation and its execution.

Keywords: budget, budgetary funds /budget funds, results-oriented budgeting, program budgeting, traditional budgeting.

Абстрактный: В данной статье описываются новые методологические подходы к повышению эффективности анализа исполнения бюджетных расходов, а также методология использования этих новых подходов для обеспечения правильного формирования бюджета и его исполнения с помощью эффективной бюджетной системы.

Ключевые слова: слова: бюджет, бюджетные средства, бюджетирование, ориентированное на результат, программное бюджетирование, традиционное бюджетирование.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda, moliyaviy holatini baholash masalasi davlat moliyasi sohasida muhim masalalardan biri ekanligi sir emas va bu yo'nalishda ko'p yillardan buyon dunyo bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borilmoqda. Shakllangan turlicha yondashuv va usullar davlatlarda moliya sohasiga joriy etilmoqda. E'tiborli jihati, ushbu ilmiy ishlanmalarda yondashuv deyarli bir xil va byudjet ijrosi tahliliga qaratilgan. Bu tahlillar yordamida xarajatlar va olingan daromadlar bilan rejalashtirilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Shu bilan birga, mavjud amaliyot, byudjet ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslubiyotini olimlar va amaliyotchilar tomonidan yetarli darajada tadqiq qilinmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa tahlil sifati va uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xulosalar belgilangan maqsad va vazifalarga hamisha ham to'liq mos emasligini namoyon etmoqda.


Shuningdek, davlat va uning hududlari moliyaviy holatini (respublika va mahalliy byudjetni) baholashda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish ushbu faqatgina mavjud ma'lumotlarga tayanib qolmasdan, kompleks statistik usullar va ekspert baholaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu, o'z navbatida, tahlilning aniqligi, to'g'riligi va ishonchligini oshirishga, shuningdek, muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonlarida uning amaliy jihatdan samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Samarali byudjetlashtirish tizimini qo'llash byudjetni to'g'ri shakllantirish va uning ijrosini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu esa moliyaviy vositalarni birinchi darajali byudjet mablag'lari taqsimlovchilar tomonidan maqsad va vazifalarga muvofiq samarali sarflash imkonini beradi. O'z navbatida, samarali byudjetlashtirish tizimida iqtisodiy subyektlarning moliyaviy xavfsizligi ta'minlanishi va byudjetda rejalashtirilgan tadbirlar uchun sarflanayotgan umumiy xarajatlar xaddan ziyod bo'lmasligini (belgilangan chegaradan chiqmasligini) talab etiladi.

Xorijiy tajribalar, dasturli-maqsadli byudjetlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish juda murakkab hamda ko'p mehnat

talab etadigan jarayonligini namoyon etdi. Mos axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish, odatda, bir necha yillarni talab etadi.

Ushbu yo'nalishda Shvetsiya tajribasi alohida e'tiborga moliqdir. Xususan Shvetsiyada byudjet jarayonini isloh qilishning umumiy dasturi doirasida moliyaviy va boshqaruv axborotini integratsiya qiladigan axborot tizimi amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etilgan (1-rasm). Ushbu tizimdan nafaqat vazirliklar va parlament, balki jamoatchilik xam foydalanish imkoniyatiga egaligi e'tiborga molikdir.



1-rasm Shvetsiyada byudjet jarayonini isloh qilishning umumiy dasturi doirasida moliyaviy va boshqaruv axborotini integratsiya qiladigan axborot tizimi

Ko'rinib turganidek, doira markazida ma'lumotlar banki joylashgan bo'lib, uning atrofida axborot yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar joylashadi. Vazirlik va idoralarda boshqaruv va moliyaviy axborotni tahlil qilish uchun maxsus bo'linmalar tashkil etiladi. Ushbu bo'linmalar davlat xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish va kelib tushayotgan axborotni tahlil qilish, shuningdek, byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Olingan natijalar esa davlat byudjeti xarajatlari sohasidagi

siyosatni tuzatish va takomillashtirishda asos sifatida qo'llaniladi.

Monitoring natijalari davlat hokimiyati va organlariga muayyan byudjet dasturini oldingi moliya yilida belgilangan hajmlarda moliyalashtirishni davom ettirish maqsadga muvofiqligini yoki moliyalashtirish hajmlarini kamaytirish yoxud oshirish zarurligini belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review). Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish (NYB) zamonaviy davlat moliyasini boshqarish tizimida muhim islohot yo'nalishlaridan biri bo'lib, u davlat xarajatlarini faqat sarflangan mablag'lar bo'yicha emas, balki erishilgan natijalar asosida baholashga qaratilgan. Ushbu yondashuv davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda NYB tizimi "yangi davlat boshqaruvi" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Bu konsepsiyada davlat boshqaruvida samaradorlik, natijadorlik va hisobdorlik asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, byudjet jarayonini strategik maqsadlar bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ko'plab tadqiqotlarda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida strategik rejalashtirish, natija indikatorlari tizimi hamda monitoring va baholash mexanizmlari ko'rsatib o'tiladi. Ushbu elementlarning uyg'unligi byudjet tizimining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi [2].

Xalqaro tajribada NYB tizimi dastlab rivojlangan davlatlarda shakllanib, keyinchalik xalqaro moliya institutlari, xususan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalari asosida boshqa davlatlarga ham joriy etilgan. Bu jarayon davlat xarajatlarini natijaga yo'naltirishni kuchaytirgan [3].

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, NYB tizimining samarali ishlashi uchun aniq, o'lchanadigan va real indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi zarur. Aks holda, natijalarni baholash subyektiv tus olib, tizim samaradorligi pasayishi mumkin [4].

Shuningdek, davlat boshqaruvida natijadorlikni ta'minlash uchun institutsional salohiyatni oshirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va monitoring tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi [5].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish davlat xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy dasturlar natijadorligini baholashda muhim vosita hisoblanadi [6].

MDH mamlakatlarida esa NYB tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, dastlab dasturiy byudjetlashtirish shaklida, keyinchalik esa natijaviy indikatorlar asosida baholash tizimiga o'tilgan. Bu jarayon islohotlarning murakkab va tizimli yondashuv talab qilishini ko'rsatadi [7].

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda NYB tizimini joriy etishda byudjet jarayonining shaffofligi va fuqarolik jamiyati ishtirokining oshishi ham muhim omil sifatida qayd etiladi [8].

Bundan tashqari, byudjet jarayonida natijadorlikni ta'minlash uchun sektorlar kesimida dasturiy yondashuvni kuchaytirish va xarajatlarni natijalar bilan bog'lash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi [9].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy, samarali va shaffof tizim sifatida qaralishini ko'rsatadi. Bu yondashuv davlat siyosatini natijaga yo'naltirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [10].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы). Ushbu tadqiqot natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimini takomillashtirishga oid uslubiy yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy, tahliliy va qiyosiy yondashuvlardan kompleks foydalaniladi. Tadqiqotning metodologik asosi davlat moliyasini boshqarish, byudjet tizimi samaradorligi hamda natijadorlikka asoslangan boshqaruv konsepsiyalariga tayangan holda shakllantirilgan.

Tadqiqotda birinchi navbatda **tizimli tahlil usuli** qo'llanildi. Ushbu usul orqali natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimining asosiy elementlari — strategik rejalashtirish, dasturiy yondashuv, natija indikatorlari va monitoring mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Bu yondashuv tizimning ichki tuzilmasini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Shuningdek, **qiyosiy tahlil usulidan** foydalanildi. Bunda O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish amaliyoti rivojlangan va MDH mamlakatlari tajribasi bilan solishtirildi. Qiyoslash orqali natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etish darajasi, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlanadi.

Tadqiqotda **statistik va analitik usullar** ham qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida byudjet xarajatlari tuzilmasi, dasturiy xarajatlar ulushi hamda natijaviy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi tahlil qilindi. Bu esa tizim samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, **ilmiy adabiyotlar tahlili (desk research)** usulidan keng foydalanildi. Xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, IMF, OECD) va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning nazariy asoslari va amaliy tajribasi o'rganildi. Bu yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Shuningdek, tadqiqotda **induksiya va deduksiya usullari** qo'llanildi. Induktiv yondashuv orqali alohida amaliy holatlar asosida umumiy xulosalar shakllantirildi, deduktiv usul orqali esa umumiy nazariy qoidalar asosida xususiy xulosalar ishlab chiqildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimini har tomonlama tahlil qilish, uning mavjud holatini baholash hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты). Umuman olganda, samarali byudjetlashtirish tizimini qo'llash byudjetni to'g'ri shakllantirish va uning ijrosini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu esa moliyaviy vositalarni iqtisodiy subyekt tomonidan (respublika va mahalliy byudjetlarda ham) maqsad va vazifalarga muvofiq samarali sarflash imkonini beradi. O'z navbatida, samarali byudjetlashtirish tizimida iqtisodiy subyektlarning moliyaviy xavfsizligi ta'minlanishi va byudjetda rejalashtirilgan tadbirlar uchun sarflanayotgan umumiy xarajatlar xaddan ziyod bo'lmasligi (maqbul chegaradan chiqmasligi) talab etiladi.

Shundan kelib chiqib, samarali byudjetlashtirishni amalga oshirish (birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan) borasidagi ishlar samaradorligini baholash masalalariga ham e'tibor qaratilgan va ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Uslubiyotning asosiy vositasi sifatida birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun "Byudjet barqarorligini aniqlash va mablag'lardan foydalanish monitoringini yuritish modeli" taklif qilingan. Modelning asosiy vazifasi – samarali byudjetlashtirishni amalga oshirish uchun, moliyaviy resurslarni to'g'ri yo'naltirish, belgilanmagan sohalarga (noqonuniy) yo'naltirish ehtimolini minimallashtirish va maqsadlarga erishish yo'lida resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda byudjetning umumiy xarajtlarini kamaytirish (optimal sarflash) sharti bilan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda byudjetni qay darajada sifatli rejalashtirilganligi haqida tahliliy axborotga ega bo'lish.

Bizning fikrimizcha, samarali byudjetlashtirish tamoyillarini amalga oshirish jarayonida samaradorlik darajasini aniqlashda moliyaviy boshqaruvda qo'llaniladigan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholashda ishlatiladigan ko'rsatkichlardan foydalanish ma'quldir. Shuningdek, bu turdagi tahlil nafaqat mumkin, balki umuman olganda, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat tashkilotlarining bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti muhitida faoliyat yuritayotgan sharoitda juda dolzarbdir.

Umuman olganda moliya idoralari har yili kelgusi byudjet yili uchun byudjetni tuzadilar va hisobot yili davomida, shuningdek hisobot yili yakunida uning ijrosi bo'yicha tahliliy ishlarni o'tkazadilar va bu ishlarda amaliyotdan kelib chiqib, odatda qo'yidagi ko'rsatkichlardan foydalanilishlari mumkin:

mutlaq miqdorlar – byudjetning daromad va xarajat qismi bo'yicha ko'rsatkichlar;

nisbiy miqdorlar – byudjet koeffitsiyentlari, ya'ni solishtirish asosida shakllangan ko'rsatkichlar;

sifat ko'rsatkichlari – byudjet ko'rsatkichlarining rivojlanish tendensiyalarini, shuningdek, byudjetni tuzish va ijro jarayoniga alohida omillarining miqdoriy va sifat jihatdan ta'sirini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar natijasida shakllangan ko'rsatkichlar.

Shu o'rinda, byudjet tahlili byudjetning ijrosi hamda birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning moliyaviy holatining tahlilini o'z ichiga oladi. O'z navbatida, byudjet tahlilida asosan qo'yidagi maqsadlar qayd etiladi:

1) Moliyaviy boshqaruv sohasida zarur qonunchilik asoslarini yaratish, muntazam takomillashtirib borish hamda ularning ijrosini ta'minlash;

2) Soliq-byudjet siyosatining asosligini ta'minlash;

3) Byudjetni shakllantirishda qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar (byudjet parametrlari)ni asoslash;

4) Byudjetni tuzish va uning ijrosi bo'yicha natijalarni baholash;

5) Byudjetni tuzish va ijro jarayonida mavjud zaxiralarni aniqlab borish;

6) Byudjetning rejalashtirilgan ko'rsatkichlari (byudjet parametrlari) bajarilmasligiga ta'sir etgan omillar va sabablarni aniqlash va tahlil qilish;

7) Byudjetga daromadlarni yo'naltirish rejasini (maqsadli parametrlarni) to'liq, o'z vaqtida va barqaror bajarilishini ta'minlash;

8) Byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni (byudjet parametrlarini) reja bo'yicha to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash;

9) Byudjet xarajatlarinig iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash;

10) Byudjet mablag'larini tasaruf etuvchi tashkilotlar faoliyatini kuzatib borish yo'li bilan (muvofiqlashtirish) kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish (bu kamchiliklar byudjet mablag'larining samarasiz, maqsadsiz va noto'g'ri sarflanishiga olib kelishi mumkin);

11) Byudjetni shakllantirish va ijro jarayonida birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish (muvofiqlashtiruvchi organ sifatida vazifalarni lozim darajada bajarilmaslik yoki vakolatlardan ortiqcha foydalanish jarayonga salbiy ta'sir korsatib, byudjet ijrosini ta'minlanmaslik va/yoki ko'zlangan maqsadlarga erishmaslik xavfni oshiradi);

12) Byudjet jarayonida respublika va hududlar orasidagi byudjet munosabatlarini takomillashtirib borish.

Bugungi kun amaliyotida moliya idoralari va moliyaviy nazorat organlari byudjet ko'rsatkichlarining ijrosini o'rganadilar va tahlil qilib boradilar. Biroq, byudjetlarning holati va barqarorligini tahlil qilish uslubiyoti deyarli ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, moliya idoralari va moliyaviy nazorat organlari moliyaviy tahlillarni amalga oshirishda birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish holatini o'rganish barobarida, taqdim etilgan sudalarning (odatda mahalliy byudjetlarga, shu bilan birga respublika idoralarida ham bo'lishi mumkin) qaytarilish holati, davlat kafolati ostidagi majburiyatlarning bajarilishi holati hamda davlat manfaatlarini yo'lida amalga oshirilgan moliyaviy quyilmalar (byudjet hisobida) ijrosini chuqur o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Byudjet tahlilini olib borishda, ilmiy-nazariy va amily tajribalardan kelib chiqib, iqtisodiy-statistik tahlilda keng qo'llaniladigan solishtirish usuli, guruhlash usuli va zanjirli almashtirish usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Eng oddiy usul — solishtirish usuli bo'lib, unda joriy moliyaviy yilning byudjet ko'rsatkichlari rejalashtirilgan ko'rsatkichlar yoki bazaviy moliyaviy yilning ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Bazaviy moliya yili ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda solishtirish imkonini yaratilishi talab etiladi, ya'ni ko'rsatkichlar tarkibiy elementlarning bir xilligi, inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda qayta hisoblanishi lozim (joriy davr qiymatlari bazis davr qiymatlariga qayta hisob-kitob qilinadi, natijada solishtirma qiymatlarda ko'rsatkichlar shakllanib ushu ikki davrni solishtirish imkonini yaratiladi).

Guruhlash usulidan foydalanganda, byudjet ko'rsatkichlari xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi lozim (masalan, sohalar kesimida, yo'nalishlar bo'yicha va h.k.). Bu alohida holatlarning rivojlanish tendensiyalarini, ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, tahliliy hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Zanjir usuli — joriy moliyaviy yilning alohida byudjet ko'rsatkichini bazaviy moliyaviy yilning byudjet ko'rsatkichi bilan almashtirish orqali tahlil qilish. Bunda, boshqa barcha ko'rsatkichlar o'zgarish holda qoldirilishi

lozim. Bu usul alohida omillarning umumiy byudjet ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, byudjet tahlilida gorizontal, vertikal, trend va omilli tahlil usullaridan ham foydalanish mumkin.

Horizontal tahlilda joriy moliyaviy yilning byudjet ko'rsatkichlari bazaviy moliyaviy yilning byudjet ko'rsatkichlari bilan, shuningek, rejalashtirilgan ko'rsatkichlar natija ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Vertikal tahlilda byudjet tuzilmasi aniqlanadi, alohida byudjet ko'rsatkichlarining umumiy ko'rsatkichdagi ulushi va ularning umumiy natijaga ta'siri baholanadi.

Trend tahlili byudjet ko'rsatkichlarining dinamikasini o'zgarish tendensiyalarini aniqlash maqsadida olib boriladi. Bu tahlilda bir necha yillik rejalashtirilgan ko'rsatkichlar yoki hisobot ko'rsatkichlari vaqt qatorlari yordamida solishtiriladi. Natijada, retrospektiv tahlilga asoslangan holda byudjet ko'rsatkichlarini prognoz qilish imkonini paydo bo'ladi.

Omili tahlil alohida omillarning byudjet ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ijtimoiy va madaniy tadbirlar xarajatlari ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida byudjet muassasalari xodimlari soni, xodimlarning malaka darajasi, muassasalarning faoliyat davri, narxlar darajasi (inflyatsiya) va shu kabi omillar ko'rib chiqilishi mumkin.

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning maqsad va vazifalari asosida moliyaviy resurslarni samarali sarflanishini baholash, shuningdek, ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash nuqtai-nazaridan samarali byudjetlashtirishni amalga oshirish uchun byudjet tahlilini olib borishda yuqorida qayd etilgan barcha usullar kompleksini qo'llash lozim.

Bu vositalar yordamida byudjet holatini har tomonlama baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin. Ayni paytda, ushbu omillar va ularning byudjetga ta'sir darajasini bilish byudjet sohasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi hamda salbiy holatlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini yaratadi.

Bu esa, byudjet tahlili tuzilgan byudjet yoki ijro etilgan byudjet natijalariga asoslanib olib borilishi mumkinligini ko'rsatdi. Tuzilgan byudjetni tahlil qilish jarayonlari qo'yidagi tadqiqot yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyot tarmoqlari moliyaviy holatining tahlili;
- joriy yil byudjeti ijrosi kutilmalarining tahlili;
- byudjetni daromad qismida daromad manbalari bo'yicha tahlili;
- byudjetni xarajatlar qismida sarflash manbalari bo'yicha tahlili.

O'z o'mida, ijro etilgan byudjet natijalari tahlili qo'yidagi tadqiqot yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyot tarmoqlari va alohida manbalar bo'yicha tushum ko'rsatkichlari ijrosining tahlili;
- moliyalashtirish yo'nalishlari bo'yicha harajatlar rejasini ijrosining tahlili;
- byudjet bo'yicha qarz majburiyatlarini ijrosining tahlili;
- byudjet kassa ijrosi tahlili.

Xususiyatiga ko'ra "byudjet" barcha turdagi byudjet hisobotlarining eng muhim shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, byudjet ma'lumotlari, ochiqlik va shaffoflik prinsipi nuqtai-nazaridan zarur ahamiyatga ega. Ya'ni:

aholiga – mablag'lar qay yo'nalishda sarflanayotganini bilish va nazorat qilish uchun;

soliq to'lovchilarga – ular to'layotgan soliqlar nimaga sarflanayotgani haqida axborot olish uchun;

muvofig. Modelni byudjetni daromad va xarajat qismlari bo'yicha ayrim bandlarini (moddalarini) guruhlash (qisqartirish, umumlashtirish,).

1-jadval.

Byudjet barqarorligini aniqlash va mablag'lardan foydalanish monitoringi usuli¹

	Asosiy ko'rsatkichlar (mutlaq qiymatlar)		Nisbiy ko'rsatkichlar (jamidagi ulush, %da)		Farqlanishlar (o'zgarishlar)			
	Joriy moliya yili	Birinshi rejaviy yil	Joriy moliya yili	Birinshi rejaviy yil	Mutlaq qiymatlarda	Tarkibida	Joriy yil qiymatiga nisbatan %da	Budjet o'zgarishiga nisbatan %da
1	2	3	4	5	6=3-2	7=5-4	8=6/2*100	9
Daromadlar:								
D ₁								
...	I ₁	I ₂	ISR= I ₁ / I ₁ *100%	IPR= I ₂ / I ₂ *100%	ΔI ₁ =I ₂ - I ₁	IPR-ISR	ΔI ₁ /I ₁ *100	ΔI ₁ /ΔI*100
D _n								
Jami Daromadlar (D)	I₁	I₂	100	100	ΔI=I₂- I₁	0	ΔI/I₁*100	100
Xarajatlar:								
S ₁								
...	S ₁₁	S ₁₂	SSR= S ₁₁ / S ₁ *100%	SPR= S ₁₂ / S ₂ *100%	ΔS ₁ =S ₁₂ - S ₁₁	SPR-SSR	ΔS ₁ /S ₁ *100	ΔS ₁ /ΔS*100
S _n								
Jami xarajatlar (S)	S₁	S₂	100	100	ΔS=S₂- S₁	0	ΔS/S₁*100	100


ma'muriyatga – byudjetni tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida foydalanish uchun;

banklarga – byudjetning moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida.

Bu tarzda byudjet ma'lumotlari turli manfaatdor tomonlar uchun shaffoflik, nazorat va tahlil uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, byudjet ikki asosiy qism – daromadlar va xarajatlardan tashkil topgan. Moliyaviy tahlil nuqtayi nazaridan u muayyan sanada davlatning va/yoki tegishli hududning moliyaviy holatini pul ifodasida aks ettiradi. Byudjetning jami daromadlari va jami xarajatlari hajmini, shuningdek daromadlar hamda xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish orqali amalga oshirilayotgan byudjetni (zarurat tug'ilganda) joriy tartibda tuzatib borish, shu bilan birga, kelgusi davr uchun asosli qarorlar qabul qilish imkoni yaratiladi.

Mazkur tahlil byudjet jarayoni samaradorligini baholash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda istiqbolga qaratilgan samarali boshqaruv chora-tadbirlarini belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Byudjet tahlilini amalga oshirish bosqichlari qo'yidagi sxema (2-rasm) Ko'rinishida ifodalinishi mumkin.



2-rasm Byudjet tahlilini amalga oshirish bosqichlari

Daromadlar va xarajatlar tuzilmasini tadqiq qilish byudjetning moliyaviy barqarorsizligining ehtimoliy sabablaridan birini aniqlash imkonini beradi. Biroq to'g'ridan-to'g'ri byudjet ma'lumotlari asosida tahlil o'tkazish juda mehnattalab va shu bilan birga talab darajasida samarali emas, chunki hisob-kitob uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlarning haddan tashqari ko'pligi iqtisodiy subyektning moliyaviy holatidagi asosiy tendensiyalarni aniqlashda asosiy maqsaddan chetlashishga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan, biz "Byudjet barqarorligini aniqlash va mablag'lardan foydalanish monitoringini yuritish modeli"ni ishlab chiqishni maqsadga

shuningdek, tarkibiy ko'rsatkichlar va hisoblangan (hisob-kitob qilingan) ma'lumotlar bilan to'ldirish orqali shakllantirish mumkin.

Model (usul)ning ahamiyati shundaki, u odatda mutaxassislar (iqtisodchilar va ekspertlar) tomonidan byudjetning o'rganish jarayonida amalga oshiradigan hisob-kitoblarni bir tizimga keltiradi va umumlashtiradi. Shu, bois, model (usul) yordamida iqtisodiy subyektning moliyaviy holatini tavsiflovchi bir qator muhim ko'rsatkichlarni ko'shimcha tahlillsiz bevosita aniqlash mumkin.

Taklif etilayotgan byudjet barqarorligini aniqlash modeli (usuli) qo'yidagi 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu model (usul) amalda gorizontal va vertikal tahlil usullarining ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, qo'yidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadigan asosiy parametrlar qatoriga kiritilishi lozim:

- byudjet daromadlarining umumiy hajmi;
- soliq va nosoliq tushumlarining miqdorlari;
- byudjetlararo transferlar miqdori;
- byudjetning minimal xarajatlari miqdori;
- byudjet xarajatlarning umumiy hajmi.
- byudjet defitsiti (yoki profitsiti) miqdori.

"Byudjet barqarorligini aniqlash va mablag'lardan foydalanish monitoringini yuritish modeli"da, tahlil qilish jarayonida qo'yidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Soliq tushumlari ulushining umumiy daromadlar tarkibidagi o'zgarishi.
2. Soliq va nosoliq tushumlari hamda transferlarning o'sish sur'atlari taqqoslamasi.
3. Daromadlar va xarajatlardagi o'sish sur'atlarining mutanosibliigi.

Bu jihatlarda byudjetning holatini, iqtisodiy subyektning moliyaviy ahvolini to'liq, puhta va barcha omillarni inobatga olgan holda tahlil qilish imkoniyatini yaratib beradi. Agar byudjet moliyaviy jihatdan barqaror bo'lsa, vaqt o'tishi bilan soliq tushumlari ulushining ortib borishi, soliq va nosoliq daromadlarining o'sish sur'atlarini transferlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi hamda daromadlar va xarajatlar o'sish sur'atlari o'zaro muvozanatlashgan bo'lishi bilan bog'liq tendensiyalar kuzatilishi lozim.

Bundan tashqari, Dasturiy byudjetlashtirish jarayonining muhim elementi sifatida byudjet holatini tahlil qilish, bevosita resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. O'z o'rnida, yuqorida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish jarayonida byudjetdagi xarajatlar ijrosini tahlil qilish masalalari ko'rib chiqilib, bu boradagi uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish nuqtai-nazaridan "Byudjet barqarorligini aniqlash va mablag'lardan foydalanish monitoringini yuritish modeli" ilgari surildi. Haqiqatdan ham ilgari surayotgan modelimiz hisob-kitoblarni tizimlashtirishi bois byudjetni o'rganish jarayonida tahlillar uchun qo'l keladi va birinchi darajali byudjet mablag'larini

muddatli (bir yildan uch yilgacha) asosda ajratiladigan foizli ulushlar.

I3. Qayta taqsimlanadigan daromadlar –byudjet daromadlariga tushadigan byudjetlararo transferlar, ya'ni subventsiyalar va subsidiyalari.

I4. Boshqa daromadlar – boshqa nosoliq daromadlar hamda boshqa begaraz tushumlar.

Byudjetning **xarajatlar qismi** mablag'larni to'lashning **zarurat darajasiga** qarab shakllantiriladi.

S1. Minimal byudjet xarajatlari –aholining hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun Konstitutsiya bilan kafolatlangan tadbirlarni

2-jadval.

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning to'lovga qobiliyatlik darajasini aniqlash usuli²

Ko'rsatkich nomi	Hisoblash usuli	Qabul qilinishi mumkin bo'lgan shegara	Izox:
1. To'lov qobiliyatining umumiy ko'rsatkichi	$P = \frac{D1+0.5D2+0.3D3}{R1+0.5R2+0.3R3}$	$P \geq 1$	-
2. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	$K_{cl} = \frac{\text{Soliq daromadlari}}{\text{Joriy xarajatlari}}$	$K_{cl} \geq 0,3-0,5$ (subyektlarga bog'liq)	Soliqlar yordamida joriy xarajatlarning qaysi qismini moliyalashtirish imkoniyati aniqlanadi
3. Kritik baho koeffitsiyenti	$K_{kb} = \frac{\text{Soliq daromadlari} + \text{Nosoliq daromadlari}}{\text{Joriy xarajatlari}}$	Mumkin bo'lgan shegara: 0,6-0,7 ($K_{kb} = 1$ bo'lishi maqsadga muvofiq)	O'z mablag'lari hisobidan joriy xarajatlarning qaysi qismini moliyalashtirish imkoniyati aniqlanadi
4. Joriy likvidlik koeffitsiyenti	$K_{cl} = \frac{\text{Soliq daromadlari} + \text{Nosoliq daromadlari} + \text{Begaraz tushumlar}}{\text{Joriy xarajatlari}}$	$K_{cl} = 1$ bo'lishi lozim	Barsha manbalar hisobidan joriy xarajatlarning qaysi qismini moliyalashtirish imkoniyati aniqlanadi
5. Soliqlarning umumiy daromadidagi ulushi	$U_{soliq} = \frac{D_{soliq}}{D_{umumiy}}$	$U_{soliq} \geq 0,3$	Iqtisodiy subyektaga bog'liq
6. Mustaqillik koeffitsiyenti	$K_{ms} = \frac{D_{soliq} + D_{nosoliq}}{D_{umumiy}}$	$K_{ms} \geq 0,6$ (qarshalik yuqori bo'lsa, shaharshalik yuqorisi)	Joriy xarajatlarni qoplash bo'yicha iqtisodiy subyekt imkoniyatlari aks etadi
7. Tashiq moliyalashtirish koeffitsiyenti	$K_{tm} = \frac{D_{beg\ araz\ tushumlar}}{D_{umumiy}}$	$K_{tm} \leq 0,4$	Iqtisodiy subyektning transferlarga multoijligi aks etadi

taqsimlovchilarning moliyaviy holatini tavsiflovchi bir qator muhim ko'rsatkichlarni qo'shimcha tahlillsiz bevosita aniqlash mumkinligi bilan quyaydir.

Shu o'rinda, modelni qo'llash davrida to'lovga qobiliyatlik darajasini baholash zarurati ham yuzaga kelishi mumkinligini inobatga olib, qo'shimcha ravishda byudjet likvidligini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ya'ni, byudjet likvidligi haqida gapirganda majburiyatlarini vaqtida va to'liq amalga oshirish nuqtai-nazaridan tegishli byudjet imkoniyatlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Shundan kelib chiqib, amaliyotga kiritish uchun "likvidli byudjet" tushunchasini taqdim etamiz. Ilmiy manbalar, adabiyotlar, olimlar va tadqiqotchilarning xulosalari, shungdek, amaliyotdan kelib chiqib, o'rganishlar natijasiga ko'ra, biz likvidli byudjet tushunchasiga aniqlik kiritib, qo'yidagicha izox beramiz: **likvidli byudjet** — bu tegishli iqtisodiy subyekt zimmasiga qonunchilik asosida yuklatilgan byudjet vakolatlarini bajarish uchun yetarli daromad manbalariga ega bo'lgan byudjet hisoblanadi.

Byudjet likvidligini tahlil qilish jarayonida daromadlar manbalari yuzaga kelish xususiyatiga qarab guruhlanadi va ularning ishonchlik darajasi bo'yicha tartiblanadi. Shu bilan birga, byudjet xarajatlari to'lov muddatlariga muvofiq guruhlanadi va muddatlarning o'sib borishi tartibida joylashtiriladi.

Mazkur solishtirma tahlil orqali birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjeti o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olishi yoki bajara olmasligi baholanadi.

Likvidlik darajasiga, ya'ni kelib tushayotgan daromadlarning byudjet xarajatlarni qoplash qobiliyatiga qarab, qo'yidagi guruhlariga ajratishni taklif qilamiz.

I1. Kafolatlangan daromadlar – tegishli byudjet tizimi darajasiga birlashtirilgan soliqlar hamda yuqori turuvchi byudjetlar soliqlaridan bir qismini uzoq muddatli (uch yildan ortiq) asosda foiz hisobida o'tkazib berish orqali shakllanadigan daromad turlari.

I2. Kafolatlangan daromadlarga tenglashtirilgan daromadlar – nosoliq daromadlari, yuqori turuvchi byudjetlar soliqlaridan qisqa

moliyalashtirishga byudjetda nazarda tutilgan mablag'lar.

O'z ichiga byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar, korxonalar va tashkilotlarni saqlash xarajatlarni, aholiga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovar va xizmatlar ko'rsatish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni qamrab oladi. Samarali byudjetlashtirish strategiyasi nuqtayi nazaridan, bular vazirlik va idoralar tarkibidagi maqsadli dasturlar asosida rejalashtiriladigan hamda aniq ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi natijaga olib keladigan xarajatlar hisoblanadi. Bu turdagi xarajatlar xususiyatiga ko'ra birinchi darajali to'lovlar toifasiga kiradi.

S2. Qo'shimsh'ha byudjet xarajatlari –amalga oshirilayotgan idoraviy maqsadli dasturlarga kiritilmagan tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan byudjet mablag'lari. Bunday xarajatlar hayotiy zarur hisoblanmaydi va qat'iy majburiyatlarga ega emas, ammo resurslar mavjud bo'lgan taqdirda ijtimoiy ahamiyatli yoki maqsadga muvofiq yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi.

S3. Qabul qilinadigan xarajatlar – yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xarajatlar.

S4. Boshqa xarajatlar –qo'shimcha daromadlar paydo bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha tadbirlarga sarflanadigan xarajatlar.

Byudjet likvidligini aniqlash uchun daromadlar va xarajatlar bo'yicha keltirilgan guruhlar natijalarini taqqoslash zarur bo'ladi va fikrimizcha, byudjet qo'yidagi o'zaro nisbatlar mavjud bo'lgan holda mutlaq likvid deb hisoblanadi:

$$I1 \geq S1, I2 \geq S2, I3 = S3, I4 \leq S4.$$

(1.1)

Likvidli daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali qo'yidagi ko'rsatkichlarni hisoblash imkoniyatiga ega bo'linadi:

- *byudjetning joriy likvidligi* — birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning ko'rib chiqilayotgan vaqtga yaqin davr ichida to'lovga qobiliyatli (+) yoki qobiliyatsiz (-) ekanligini ko'rsatadi:

$$JL=(I1 +I2)-(S1$$

+S2).

(1.2)

- *istiqbolli likvidlik* — qo'shimcha tushumlar va majburiyatlarni taqqoslash asosida to'lov qobiliyati bo'yicha beriladigan bashorat:

$IL=I3-$

S3.

(1.3)

Qayd etilgan sxema asosida amalga oshiriladigan byudjet likvidligi tahlili mutlaq emas, lekin haqiqatga yaqinlashtirilgan hisoblanadi. Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning to'lov qobiliyatini yanada batafsil tahlil qilishni (2-jadval) byudjet koeffitsiyentlari yordamida amalga oshirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Yuqorida qayd etish metodologiya aniqlangan har bir omil va natijalarni ifodalaydigan ko'rsatkichlarni belgilash, ushbu ko'rsatkichlar yig'indisi muayyan byudjetni rejalashtirish davrida moliyalashtirish yo'nalishlari bo'yicha byudjet xarajatlari samaradorligi darajasini aks ettiradi. Dasturiy byudjetlashtirish xarajatlarni rejalashtirishda aniq maqsadlarni belgilash va ularga eng samarali yo'llar orqali erishishni nazarda tutadi. Shu o'rinda,

belgilangan rejalarga qay darajada erishilganlikni baholash esa byudjet siyosatini amalga oshirishning natijadorligini ifoda etadigan (aks ettiradigan) ko'rsatkichlar to'plami yordamida amalga oshirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlik va byudjet xarajatlari samaradorligini sifat va miqdoriy indikatorlar asosida rejalashtirish hamda monitoring qilish tizimini yaratish byudjet xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim choralardan biri hisoblanadi. Bunday tizim, o'z navbatida, qo'yidagi imkoniyatlarni yaratadi:

ijtimoiy samaradorlikka erishish (miqdor, sifat, qiymat, vaqt va makon jihatidan aholining ehtiyojlariga eng yuqori darajada mos keladigan jamoaviy xizmatlarni (tovarlarni) moliyalashtirishni ta'minlash);

asoslanmagan (iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan) xarajat yo'nalishlarini moliyalashtirishning oldini olish;

byudjetni (uzoq muddatli istiqbol uchun) rejalashtirish imkoniyatini yaratish;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat tashkilotlarining yakuniy natijalar uchun mas'uliyatini belgilash (miqdor va sifat jihatidan);

byudjetning moliyaviy holati va imkoniyatlarini haqqoniy baholash;

qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining asosligini ta'minlash (jumladan, byudjet muassasalari tarmog'ini optimallashtirish nuqtai-nazaridan).

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Osborne D., Gaebler T. Reinventing Government: How the Entrepreneurial Spirit is Transforming the Public Sector. Penguin, 1992.
2. World Bank. Public Expenditure Management Handbook. Washington, DC, 1998.
3. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. Paris: OECD Publishing, 2007.
4. Allen R., Tommasi D. Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries. OECD, 2001.
5. Schick A. The Changing Role of the Central Budget Office. OECD Journal on Budgeting, 2003.
6. Currstine T. Performance Budgeting in OECD Countries. IMF Working Paper, 2005.
7. IMF. Budget Classification and Program Budgeting in Transition Economies. Washington, DC, 2014.
8. Robinson M. Performance Budgeting: Linking Funding and Results. IMF, 2013.
9. Shah A. Budgeting and Budgetary Institutions. World Bank, 2007.
10. Andrews M. The Limits of Institutional Reform in Development. Cambridge University Press, 2013.